IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

INNOVATSION FAOLIYTDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Ravshanbek A.Yusupov,
Philosophy Doctor, Docent, Head of Department Implementation of Masters’ Program of the Graduate School of Business and Entrepreneurship, yusupovravshanbek6@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqola zamonaviy iqtisodiyotda ro‘y berayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va islohotolar xo‘jalik sub’ektlari faoliyatini zamonaviy mexanizmlar asosida takomillashtirishni talab etilishi xamda, bozor munosabatlari sharoitida, dolzarb muammoli masalalarni, ro‘y beradigan o‘zgarishlar va yuzaga kelishi mumkin bo‘ladigan imkoniyatlarni oldindan ko‘ra olish, xo‘jalik siyosati va strategiyasini ishlab chiqish va ushbu o‘zgarishlarga yangicha uslub, yangicha texnika - texnologiya orqali ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish davr talabi ekanligini. Aynan shu “yangilik” atamasi bugungi kunda “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat”, “innovatsion loyihalar”, tasnifiga bag’ishlangan.
Kalit so’zlar: Innovatsiya, texnika va texnologiya, iqtisodiyot, g‘oya, marketing, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, motivlik, ichki boshqaruv tizimi

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya, insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiyalarni alohida korxonalar va qolaversa butun iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishiga ta’sirini muhim ahamiyati mamlakatimiz hamda xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan hamda o‘rganilgan.

“Innovatsiya” mohiyatan murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, bu iqtisodchi olimlar yondashuvidagi farqlar bilan ham izohlanadi.

V.A. Makarenko[1] tahriri ostida nashr etilgan zamonaviy tushuncha va atamalar lug‘atida “innovatsiya” atamasiga kengroq ta’rif berilgan. Lug‘atda “innovatsiya” atamasi quyidagi mazmunda bayon qilingan: “innovatsiya” – bu:

- texnika va texnologiya avlodini almashinuvini ta’minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag‘ yo‘naltirish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining mas’uli bo‘lgan yangi texnika, texnologiyadan foydalanish;
- yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish;
- individual tusdagi, takrorlanmas, siyosiy dasturlarni amalga oshirish;

Innovatsion nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V. Zombrat, V.Mitcherxil, Y. Shumpeter tadqiqotlariga to‘g‘ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga, dastlab, avstriyalik iqtisodchi olim Y. Shumpeterning hissasi katta. U innovatsion kon’yunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarishning yangi omillarini ajratdi va ularga quyidagilarni kiritdi[2]:

Innovatsiyalar eng avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirishga qo‘yilmalarning samaraliligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishda mavjud bo‘lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni ifodalaydi[3].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikrlarda innovatsion g‘oyalarni joriy qilish va amalga oshirish jarayonini “innovatsion faoliyat” deb ta’rif beramiz.

[1] Макаренко В.А. Современный словарь. В 2 т. – М.; 2000.

[2]Камилжанов Б.И. Инновациявий менежмент услубларини такомиллаштириш Т.; Фан, – 2007. 172б.

[3] Саидов М.Ҳ. Олий таълим иқтисодиёти, инвестициялари ва маркетинги: Ўқув қўлланма.- Т.; Молия, 2003.

Innovatsion jarayon va innovatsion faoliyat bir ma'noli atama hisoblanib, yangilikni yaratish, keng tarqatish va atrof-muhitga joriy etish masalalari hal etish jarayoni hisoblanadi.

"Innovatsion faoliyat" - yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish va tijoratlash jarayoni majmuasidan iborat. Bu jarayon g'oyaning paydo bo'lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan to ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonlari[4]

1) Initsiatsiya jarayonida birichi bo'lib maqsad va vazifalar aniqlanib, g'oyalar generatsiyasi, yangi mahsulotni yaratish konsepsiyasiga muvofiq tajribasini o'tkazish va namunalar prototipini ishlab chiqish, konstruksiyalash va tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

2) Innovatsion marketing jarayonida innovatsion mahsulotni bozorga chiqarishdan oldin tadqiqot o'tkazish (innovatsion mahsulotga nisbatan iste'molchilarning fikri, bozor potensialini baholash, yangi mahsulotni sotishda iste'molchilar qobiliyati o'rganish, investor izlash)ni o'z ichiga oladi.

3) Innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayonida, marketing tadqiqoti natijalaridan olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish quyidagilar orqali amalga oshiriladi: moddiy texnika va texnologiyalarni tayyorlash, malakali xodimlarni jalb qilish, ishlab chiqarish xom ashyo va materiallar, patent, litsenziya va boshqalarni sotib olishdan iborat. Bunda innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va innovatsion faoliyatda ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar innovatsion faoliyat sub'ektlari xisoblanadi. Innovatsion marketing faoliyatiga yordam ko'rsatuvchi innovatsion infratuzilma korxonalari, investorlar, ilmiy tadkikot institutlari, maorif muassasalari, davlat xokimiyat organlari sub'ektlaridir.

4) Innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni, tayyor innovatsion maxsulotni bozorga kirish va sotishni rag'batlantirishdan iborat.

5) Innovatsion mahsulotni siljitish jarayonida marketing axborotlarini olish va foydalnishni tashkil qilish, reklama va savdo nuqtalarida nazoratni o'rnatish, alohida maslahatxonalarni tashkil qilish ishlari amalga oshiriladi.

6) Diffuziya jarayonida innovatsiyalarni xususiyatlarini o'zgarishi va sharoitlarni yaxshilanishi, yangi bozorlarni qo'lga kiritish bilan bog'liq masalalar bajariladi.

7) Innovatsion mahsulot va innovatsion faoliyatning samaradorligini baholash. Bunda innovatsion jarayonning samaradorligi taxlil qilinib, taxlilga ko'ra ehtiyojni qondirilishi yoki savdoni rivojlantirishi bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqiladi.

Ma'lumki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda ham bugungi kunning yangi va samarali faoliyati, ya'ni "*innovatsion faoliyat*" dan foydalanishni bozor iqtisodiyotini qonunlari talab qilyapti. Bu esa, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida yangicha yondashuv va yangi usullar yordamida amalga oshirishni, boshqaruv kadrlarini izlanuvchanlik, tashabbuskorlik va yangilikka intiluvchanlik kabi intellektual salohiyatidan foydalanishga undaydi.

Globallashuv sharoitda zamonaviy bank xizmatlarini takomillashib borishi bilan bizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot yo'limizga innovatsion faoliyatning bir qator tarkibiy qismlari kirib keldi. Bular innovatsiya, innovatsion mahsulot, innovatsion loyihalar, iqtisodiy mexanizmlari, bozorni xarakterlovchi harakat usullari va ularni boshqarish, texnologiyalar transferi, texnologik audit,

[4] Муаллиф ишланмаси

innovatsion marketing, baholash siyosati, intellektual mulk inventarizatsiyasi-huquqiy himoyasi, benchmarking, forfeyting, ekologik tahlil, investitsiyaning taxliliy portfeli, spin-out kabilar bo‘lib, ularsiz xalqaro iqtisodiy tizim prinsiplarini, strategiyasini, biznes siyosatini samarali o‘zlashtirish imkoniyati yo‘q, albatta.

Innovatsion rivojlanishga bir vaqtning o‘zida bozor munosabatlarining sub’ekti va ob’ekti sifatida ishtirok etishi, shuningdek u turli omillar dinamikasiga ta’sir etishning turli imkoniyatlariga ega ekanligini hisobga olgan holda xorijiy olimlarning tadqiqotlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari T.I. Sherstobitova, A.V. Chernых, S.N. Glagolev, N.V. Sobchenko, G.G. Fetisovalarning tadqiqotlarida barcha iqtisodiy jarayonlarga ta’sir qiluvchi omillar ichki va tashqi muhit omillariga ajratilgan[5].

G.G. Fetisovaning fikricha korxona faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar bu – korxonaning muammolari va yechimlari hisoblanib, ular o‘z navbatida uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi:

1) Tashkiliy omillar - boshqarishning bugungi holati, innovatsiyalar bo‘yicha qobiliyati, motivlik, ichki boshqaruv tizimi;

2) Texnologik omillar - iste’molchilar bozoriga yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun zamonaviy rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo‘llash;

3) Iqtisodiy omillar - kapitalning yetarliligi, aktiv va passivning yetarliligi, foyda va likvidlilik ko‘rsatkichlarni kiritishimiz mumkin[6].

Ushbu muallifning tadqiqot natijalariga ko‘ra bu omillarning gurux ichidagi ta’siri yuqorligi bilan iqtisodiy omillarni aytib o‘tishimiz mumkin. A.V. Chernых va N.V. Sobchenkolar esa, bozor sharitida korxonalarning barcha turdagi innovatsion faoliyati ta’sir qiluvchi omillarni quyidagicha tizimlashtirgan[7]:

- xarakteriga ko‘ra: iqtisodiy va iqtisodiy bo‘lmagan omillar;
- bashorat qilish imkoniyatiga ko‘ra: bashorat qilib bo‘ladigan va bashorat qilish imkoni bo‘lmagan omillar;
- boshqarish va nazorat qilish imkoniyatiga ko‘ra: boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar;
- omillarning ta’siriga ko‘ra: bir martalik, tabiiy sharoit omillari, doimiy omillar;
- ta’sir darajasiga: makro va mikro darajadagi omillar o‘rganilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bank muasasalarining innovatsion faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni ierarxik tizimlashtirishdan asosiy maqsad, ayniqsa, bank xizmatlari bozorlarida innovatsion faoliyatini tashkil etish va omillarni samarali baholash bo‘yicha yondashuvlarda uslubiy asos sifatida foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Макаренко В.А. Современный словарь. В 2 т. – М.; 2000.
2. Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish T.; Fan, – 2007. 172b.
3. Saidov M.H. Oliy ta’lim iqtisodiyoti, investitsiyalari va marketingi: O‘quv qo‘llanma.-T.; Moliya, 2003
4. Глаголев, С.Н. Экономический механизм гибкого развития

[5] Глаголев, С.Н. Экономический механизм гибкого развития промышленного предприятия : монография СПб., Химиздат, 2002.

[6] Фетисов, Г. Г. Устойчивость банковской системы : Учебное пособие. М., Финансовая академия, 2002.

[7] Черных, А.В. Механизм устойчивого развития предприятия в период активной инвестиционной деятельности//Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Белгород,2006. 21с. Собченко, Н.В. Предпринимательские структуры: факторы, влияющие на устойчивое развитие//Вестник Белгородского университета потребительской кооперации. 2009. №4 (часть 1). С.229-235.

промышленного предприятия : монография СПб., Химиздат, 2002.

5. Фетисов, Г. Г. Устойчивость банковской системы : Учебное пособие. М., Финансовая академия, 2002.
6. Черных, А.В. Механизм устойчивого развития предприятия в период активной инвестиционной деятельности//Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Белгород, 2006. 21с
7. Собченко, Н.В. Предпринимательские структуры: факторы, влияющие на устойчивое развитие//Вестник Белгородского университета потребительской кооперации. 2009. №4 (часть 1). С.229-235.
8. Suyunov D.H. “The main problems of corporate governance and ways to solve them”, EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN:2321-6247 Impact Factor: 8.007 (SJIF 2020) 202101-13-006137, 9, 1, January, 2021.
9. Suyunov D.X. TMIning “Halqaro moliya va hisob” ilmiy onlayn jurnal, №3, iyul, 2020 yil, 58-63 betlar.
10. Suyunov D.H. Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies. International Journal of Economic Perspectives,16(11), November 2022. 90-97. Retrieve.from. 2022 by The Author(s). ISSN: 1307-1637. Impact Factor: 5.865.